

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**“O‘ZBEKISTON
MILLIY ELEKTR
TARMOQLARI”**
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01, Faks: (998-71) 208-56-60
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb-sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
**“NATIONAL
ELECTRIC GRID
OF UZBEKISTAN”**

42, Osiyo str., Yunusobod dist.; 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01, Fax: (998-71) 208-56-60
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web-site: www.uzbekistonmet.uz

2023-yil 2-may
01-02-22/1653-sonli

**“IDEAL COLOR PRINT” MChJ
qo‘shma korxonasi
Oguz Artem Aleksandrovichga**

*2023-yil 25-apreldagi
276/23-sonli murojaat xati yuzasidan*

Toshkent viloyati, “Bunyodkor” MFY, TXAY ko‘chasi yoqasida qurilishi rejalashtirilgan “Shaharcha”ning zarur energiya resurslari bilan ta‘minlash hamda yagona energotizimga ulash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi **“Yuridik va jismoniy shaxslarni elektr tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”**gi 555-son qarori bilan tasdiqlangan reglamentiga asosan texnik shartlar olish uchun Davlat xizmatlari agentligi orqali murojaat qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** 2018-yil 12-yanvardagi 22-son qarorining 1-ilovasi 4-bobiga asosan elektr energiyasi bilan ta‘minlash hamda infratuzilma tizimlariga ulash yuzasidan texnik shart ishlab chiqish uchun loyihalashtirilayotgan har bir obektni tavsiflovchi yuklama miqdori, iste‘molchining elektr ta‘minoti ishonchliligi bo‘yicha toifasi, joylashgan joyi (*aholi punkti bilan bog‘liq kartografiya material*), ob‘ektni loyihalashtirish va qurish muddatlari ko‘rsatilgan buyurtmanoma taqdim etilishi bilan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan texnik shartlar berilib, tarmoqning tegishliligi bo‘yicha kelishib berilishi ma‘lum qilinadi.

**Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari**



A. Nazirov